

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Chekka hududlarda istiqomat qiluvchi yolg‘iz keksalar va yolg‘iz nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olishning alternativ yondashuvlarini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - keksalardagi yolg‘izlik va umr davomiyligi o‘rtasida korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligi o‘rganiladi; - tadqiqot doirasida yolg‘iz keksalar axborot tizimini tahlil qilish, ularga xizmat ko‘rsatgan ijtimoiy xodim assistentlaridan ularning turmush darajasi va xususiyatlari haqida so‘rov o‘tkaziladi; - yolg‘iz keksalar umr davomiyligiga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganiladi; - dunyoning boshqa mamlakatlarida yolg‘iz keksalarning hayot sifatiga ta’sir qiluvchi omillar va ijtimoiy himoya tizimi orqali ularni yaxshilashga qaratilgan choralarni adabiyot tahlili asosida o‘rganiladi; - O‘zbekiston yolg‘iz keksalari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda umr davomiyligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar asosida konseptual asoslari yaratiladi; - chekka hududlarda istiqomat qiluvchi yolg‘iz keksalar va yolg‘iz nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olishning alternativ yondashuvlari ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida natijalar Ijtimoiy himoya milliy agentligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Ijtimoiy himoya milliy agentligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.